

**JAMOAT TRANSPORTINI RIVOJLANTIRISH CHORATADBIRLARI*****Sharipov Bexruz****Toshkent Davlat Transport Universiteti Talabasi*

**ANNOTATSIYA:** Hozirgi kunda jamoat transportida yo‘lovchilarga transport xizmati ko‘rsatish yetarli darajada emas va axoliga transport xizmat ko‘rsatish uchun transport vositalari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan, axoli gavjum xududlarda avtobus transport xizmatlari mavjud emas, axoliga transport xizmatlarini ko‘p qismini yengil avtomobil taksilarda bajariladi bu esa xozirgi kun davlat talabiga javob bermaydi.

**KALIT SO‘ZLAR:** Jamoat transporti, avtobuslar, tirbandlik, transport, avtobus, metro, avtobus bekatlar.

Hozirgi kunda uzundan – uzun tirbandliklarning ko‘payganini har bir yirik shaharlarda kuzatishimiz mumkin. Chunki shahar rivojlangani sari unda yashovchi aholi soni ortib boradi. Bundan kelib chiqadiki avtomobil yo‘llarida ham karrasiga avtomobillar ortib boradi. Shu jumladan poytaxtimiz Toshkent shaxrida ham hozirgi kunda avtomobillar soni ortgani sari tirbandliklar ortib bormoqda. Bu tirbandliklarning oldini olish va yo‘llardan avtomobillarni kamaytirish usullaridan eng ustuvori bu jamoat transportlarini rivojlantirishdir. Jamoat transportini rivojlanishi shaxardagi tirbandliklarning kamayishiga sabab bo‘ladi. Jamoat transporti yaxshilansa axolining ko‘p qismi shaxsiy avtomobillardan foylanmasdan jamoat transportlaridan foydalanishni boshlaganda shaxar avtomobillar soni kamaygani sari yo‘llarimizda avtobuslarni oshirishimiz lozim. Xalq jamoat transportlaridan foydalanishlari uchun jamoat transportlarini yaxshi holda tez, havfsiz, qulay bo‘lishi lozim. SHaxar aholisi shahar bo‘ylab sayohat qilishda, uydan ishga borishda yoki ishdan uyga qaytishlarida vaqtan tejash muhim hisoblanadi. Ya’ni jamoat transportlari aholi ulardan foylananishlari uchun boradigan manzillariga kechiktirmasdan manzillariga yetqazish shart.

Aholi jamoat transportidan foydalanadi qachonki jamoat transportlari bir manzildan boshqa manzilga tezda yetqaza olsagina ular jamoat transportlaridan foydalanishlari ortadi. Birinchi navbatda jamoat transportlarining tezliklariga katta etibor berish lozim. Ya’na muhim omillardan jamoat transportlarida har xil qulayliklar va ekologik toza tutish lozim. Jamoat transportini shaxrimizda rivojlanishi ekologiyaga katta tasir ko‘rsatadi. Ya’ni yengil avtomobillar avtomobil yo‘llarida kamaygani sari ulardan chiqadigan gazlar ham kamaya boradi. Bundan ko‘rinib turibtiki atrof- muhitga kamroq zarar yetadi agar jamoat transportlari faoliyati rivojlansa.

Shahar Jamoat transport tarmoqlariga qo‘yilgan quyidagi talablardan eng asosiyları quyidagilar:



- Ko'zlangan manzilga bitta transportga yetib olish
- Manzilga kam vaqt sarflab tez yetib borish
- Transport vositalaridagi yo'lovchilar soni cheklangan sig'imdan ortiq bo'lmasligi
- Yo'lovchilarning havfsizligini ta'minlash
- Taransport vositalari o'rindiqlan va qo'l tegadigan barcha joylar tozaligi
- Jamoat transportlari haymonbop bo'lishi

Shu va shunga o'xshash muhim omillar mavjud. Bu omillarni yaxshi tomonga o'zgartira olsak jamoat transportlari rivojlanishi karrasiga amalga oshadi. Chunki bu omillar jamoat transportlaridan foydalanuvchi uchun har tomonlama qulay bo'ladi. Ya'ni

1- Ko'zlangan manzilga bitta transportga yetib boorish- aholining ortiqcha ovoragarchilik va o'zga yarasha qulaylikni ta'minlaydi.

2- Manzilga kam vaqt sariflab tez yetib borish - aholi vaqtini tejash boradigan manzilga kechikmasdan yetib olishga yordam beradi. Jamoat transportlarini ko'paytirish bunga ancha yordam beradi.

3- Yo'lovchilarning havflizligini ta'minlash- Yo'lovchilaarning havfsizligi birinchi navbatda bo'lishi lozim. Haydovchilar bunga katta etibor berishlari bunga jiddiy munosabatda bo'lishlari shart. Yolovchilarni manzillariga sog' salomat yetqazib quyish jamoat transportlarining vazifalari hisoblanadi.

4- Jamoat transportlarining hamyonbob bo'lishi- bu yo'lovchining shaxsiy avtomobilda harakatlanishidan ancha arzonroq bo'lishi jamoat transportlardam foydalanishlarni oshirishi tabiiydir.

Jamoat transportlari eng rivojlangan davlatlardan biri Singapurda shahar aholining 11% da shaxsiy avtomobil mavjud. Qolgan barcha jamoat transportlaridan foydalanishadi. Chunki jamoat transportlari ular uchun qulay hamyonbob va havfsizdir. Jamoat transportlarida manzilga yetib boorish shaxsiy avtomobillarda yetib borishdan ancha oson va arzon Singapur davlarida. Boshqa barcha rivojlangan davlarda jamoat transportlari rivojlantirish siyosiy jihatlardan muhim ro'l o'ynaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. E.Karimov. Avtomobillarda yo'lovchilar tashish,Toshkent, "Sharq,"2015
2. J.R.Qulmuxamedov. K.M.Nazarov. "Transport logistikasi" Toshkent 2018 yil.
3. K.M.Nazarov, N.Z. Arifjonova, X.A.Mirgiyazov "Avtotransport vositalarida yo'lovchilar tashishni tashkil etish" - T. Uzbekistan milliy akademiyasi – 2012y.
4. Qulmuxamedov J.R. va boshq. Yo'l harakati qoidalari va xavfsizligi. –T., 2008.
5. Azizov K.X. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. –T., 2022.